

Buxoro viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025- yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida, Buxoro viloyatida jami 19 168,8 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 111,3 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Buxoro viloyati	19 168,8	111,3
Buxoro sh.	3 812,2	120,1
Kogon sh.	668,3	104,6
Olot tumani	548,5	107,3
Buxoro tumani	719,7	109,5
Vobkent tumani	554,5	110,1
G'ijduvon tumani	984,7	123,8
Kogon tumani	984,3	100,9
Qorako'l tumani	763,7	102,3
Qorovulbozor tumani	790,1	107,7
Peshku tumani	836,4	110,7
Romitan tumani	1 462,7	104,5
Jondor tumani	686,3	119,4
Shofirkon tumani	977,0	113,6

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida Buxoro viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 67,2 % ulushni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 108,9 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 25,5 % ulushni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 117,5 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 7,3 % ulushni va 2024- yilning mos davriga nisbatan 113,2 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	1 138,6	1 376,0	552,4
o'sish sur'ati, %	105,3	111,9	113,0
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	3 962,6	3 518,9	849,5
o'sish sur'ati, %	110,4	119,9	113,4
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	7 770,8	-	-
o'sish sur'ati, %	108,7	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025- yilning yanvar-dekabr oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 3 067,0 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan 109,6 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 0,3 % ga kamayib, 16,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 43,5 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan 114,5 % ni tashkil etgan holda 8 331,0 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 40,5 % ni yoki 7 770,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 108,7 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



**Hududlar kesimida korxona turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Buxoro viloyati	3 067,0	8 331,0	7 770,8	109,6	114,5	108,7
Buxoro sh.	948,1	2 258,4	605,7	124,3	122,3	107,1
Kogon sh.	119,4	474,5	74,4	120,8	100,9	106,7
Olot tumani	45,8	257,4	245,3	37,1	174,0	102,3
Buxoro tumani	31,6	433,0	255,1	61,8	118,8	105,6
Vobkent tumani	45,5	273,2	235,8	146,2	112,4	102,7
G'ijduvon tumani	91,1	448,5	445,1	2,3 m.	129,3	109,0
Kogon tumani	40,2	709,0	235,1	60,3	102,8	107,3
Qorako'l tumani	217,0	300,2	246,5	64,7	162,0	109,1
Qorovulbozor tumani	586,2	150,1	53,8	129,0	65,0	111,8
Peshku tumani	29,3	520,4	286,7	162,1	108,6	111,0
Romitan tumani	455,8	705,1	301,8	89,6	116,1	106,5
Jondor tumani	81,6	355,1	249,6	8,2 m.	107,1	106,9
Shofirkon tumani	67,0	727,8	182,2	3,5 m.	109,0	105,1

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Jondor tumanida (8,2 m.), Shofirkon tumanida (3,5 m.) va G'ijduvon tumanida (2024- yilning mos davriga nisbatan 2,3 m.) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Olot tumanida (2024- yilning mos davriga nisbatan 174,0%), Qorako'l tumanida (162,0) va G'ijduvon tumanida (129,3 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;



- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

Sh. Xodjaev
65 223-81-99 (8020)

Manzil:

200100, Buxoro sh.,
S.Ayniy ko'chasi, 3-uy
